



## XIX-XX ASR ADABIY MUHITIDAGI SHE’RIY MAKTUBLAR TASNIFI

**Qarshiboyeva Gulira’no Boxodir qizi,**  
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207416>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyotida maktub janrining o‘rni va xususiyatlari yoritilgan. Ayniqsa, she’riy maktublarning mazmuni, shakli hamda badiiy ifoda vositalari haqida so‘z yuritilib, Furqat va Muqimiy kabi ijodkorlarning ushbu janrdagi ijodi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** demokratik shoirlar, poetika, lirik ohang, badiiy vositalar, radif.

Kirish. O‘zbek adabiyoti tarixining diqqatga sazovor davrlaridan biri XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi adabiyot hisoblanadi. Bu davr adabiyoti bilan bog‘liq masalalar adabiyotshunoslikda juda chuqur o‘rganilmagan. Biroq davrning nazariy va amaliy ahamiyati katta bo‘lib, shuningdek, rus va o‘zbek madaniy- adabiy aloqalari ham muhim masala sifatida ko‘tariladi. Garchi rus va o‘zbek madaniy hamda adabiy munosabatlari juda qadimiy bo‘lsa-da, keng miqyosdagi madaniy- adabiy aloqalar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivoj topdi. Bu ikki xalqning to‘gridan- to‘g‘ri aloqa o‘rnatishi natijasida, ularning o‘zaro madaniy hamkorligi mustahkamlandi. Shoir va yozuvchilarning haqiqiy turmush sharoitini ochib beruvchi asarlarining kirib kelishi natijasida demokratik adabiyot paydo bo‘la boshladi. Bunday adabiyot xalqning turmush sharoitlari bilan bevosita bog‘liq. Uning asosiy mohiyati, ijodiy va estetik tamoyillari xalqchilik, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bogliqdir. Mazkur adabiyotning yirik vakillari Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O‘tar kabi ijodkorlar o‘z asarlarida xalq hayotining realistic tasvirini berishga intilganlar. Shuningdek, demokratik adabiyot vakillari ko‘proq poeziya sohasida ijod qildilar. Adabiyot tarixining keyingi bosqichlarida paydo bo‘lgan badiiy proza, dramaturgiya janrlari bunday adabiy jarayonda mavjud bo‘lmagan. Furqat, Muqimiy, Zavqiy va boshqa shunga o‘xshash demokratik shoirlar asosan, poeziyaning kichik turlarida ijod qilganlar. Buning tarixiy- ilmiy sababiga keladigan bo‘lsak, klassik adabiyotimizda poeziya juda keng taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Va demokratik shoirlarga bunday uslubda yozish hamda an’anani davom ettirish qulay bo‘lgan. Binobarin, poetik asarlar, masalan, uning g‘azal shakli odamlar orasiga tez yoyilib ketuvchi, xalqning



badiiy estetik didiga yaxshi javob qaytaruvchi adabiy shakl bo‘lgani uchun shoirlar g‘azal shakliga murojaat qilganlar.

Demokratik adabiyotdagi yana bir muhim va yangi janr maktub janri hisoblanadi.

Asosiy qism. Aynan maktublarni she‘riy shaklda yozish adabiyotimiz tarixida ham uchragan. Biz yuqoridagi boblarimizda maktub, noma janrlariga alohida to‘xtalganmiz. Bil‘aks, ushbu janrning she‘riy shakli hamda tasnifini shu boblarda tadqiq qilamiz. Tarixiy she‘riy maktubga Alisher Navoiyning Hirotdan do‘sti Said Hasan Ardasheriga yuborgan “Hasbi hol” nomli maktubini misol qilishimiz mumkin. Shuni aytish kerak-ki, o‘tmish davrlardagi maktublar hajmi XIX – XX asr oralig‘idagi maktublardan ancha kam va salmoqli. Shunday qilib nasriy xat yozish bilan she‘riy tarzda xat yozish ushbu asr shoirlari uchun an‘anaga aylanib borgan. Hisoblarga ko‘ra, Muqimiyning “Assalom”, “Minnatdorman”, “Javobi Ruq‘ayi Nodim Namongoniy”, “Nuqtadonlar, assalom”, “Salom, ey mehribonlar”, “Salom, ey yoru oshnolar”, “Bor erdi”, “Payg‘omi manzuma”, “Ul husn sultoniga salom” kabi she‘riy maktublari, Furqatning Farg‘ona va Toshkentda hayot kechirgan vaqtlarida va chet el sayohatlarida (Turkiya, Hindiston, Xitoy) yozgan “Muqimiyya xat”, “Furqatning Muqimiyya maktubi”, “Sabog‘a xitob”, “Bo‘mbaydan xat”, “Yorkand shahridan Toshboltuga xat” kabi besh dona maktublari bizgacha yetib kelgan.

Aytish joizki, she‘riy maktublar oddiy xabar almashinish vositasi emas, balki shoirning ruhiy holati, ichki kechinmalariva his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi qimmatli badiiy asar hamdir. Shu sababli, demokrat shoirlar, orasida shakllangan bu yozishmalar epistolyar adabiyotning yorqin namunasi bo‘lib, maktub janrining rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

She‘riy maktublar adabiyotning o‘ziga xos janrlaridan biri bo‘lib, badiiy ifoda vositalarining boyligi va murojaat shaklining mavjudligi bilan ajralib turadi. Ular lirik ifoda vositalari bilan boyitilib, poetik (poetika yunoncha so‘z bo‘lib, “ijod qilish san‘ati” ma‘nosini anglatadi. U ijodning qanday qilib san‘atga aylanishini ko‘rsatadigan fan) tarzda yoziladi. Bunday maktublar ichki kechinma, shaxsiy fikr, ijtimoiy- falsafiy mulohaza, muhabbat, do‘stlik, minnatdorlik yoki holatidan nolish kabi mavzularda yozilishi mumkin. She‘riy maktublarni mazmunan bir necha guruhlarga ajratishimiz mumkin. Ularning barchasi shoirning ichki dunyosi, hayotiy tajribalari va murojaat qilinayotgan shaxsga bog‘liq bo‘ladi:

1. Ishqiy she‘riy maktublar. Bu turdagi maktublar asosan yorga yoki yaqin kishiga yo‘llanadi. Ularda shoirning ishqiy kechinmalari, hijron va visol iztiroblari,



sadoqat va umid aks etadi. Bunday maktublarda tashbeh, istiora va mubolag‘a kabi san‘atlar keng qo‘llanadi.

2. Hajviy va tanqidiy maktublar. Ba‘zan shoirlar o‘z davridagi siyosiy-ijtimoiy muammolar yoki ayrim shaxslarning fe‘l-atvori ustidan kulish yoki tanqid qilish maqsadida maktub shaklida shunday she‘r bitiladi. Bunday maktublarda kinoya, tazod va mubolag‘a san‘atlari ko‘p uchraydi.

3. Do‘stona ruhdagi she‘riy maktublar. Shoirning o‘z yaqin do‘stlari yoki adabiy hamkasblari, zamondoshlariga yozilgan samimiy she‘riy maktublari kiradi. Bunday turdagi maktublar iliq tuyg‘ular, samimiyat va insoniy munosabatlarga asoslanadi.

4. Falsafiy va didaktik ruhdagi she‘riy maktublar. Ayrim she‘riy maktublarda shoirlar dunyoqarashi, ichki va tashqi ruh go‘zalligi, adolat istagi kabi masalalarda so‘z yuritadilar.

She‘riy maktublar nasriy maktublarga qaraganda badiiy-estetik jihatdan mukammalroq bo‘ladi. She‘riy maktublarning asosiy xususiyatlaridan biri unda lirik ohang mavjud. Lirik ohang shaxsiy tuyg‘ularni, hissiyotlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Maktublarning bu turi nafaqat muloqot vositasi, balki o‘sha davrning in‘ikosi hamdir. Ular mantiqan izchil bo‘lib, bir tizimda fikr ifodalanadi. Maktubda shoir yozish maqsadini ritmik ifodalaydi. Asosan, aruz, barmoq va erkin she‘r tizimlarida bo‘lib, qurilishi mazmun va uslubdan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra ularni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

a) qofiyalangan she‘riy maktublar, odatda, bayt yoki misralar tizimiga asoslanadi;

b) erkin she‘r shakldagi maktublar, ular asosan, zamonaviy adabiyotda uchraydi;

Qofiyalangan she‘riy maktubga Furqatning “Bo‘mbaydan xat” nomli maktubidan quyidagi misrani keltirib o‘tamiz:

Assalom, ey ahli xush: ahbobu do‘stu yorlar,

Hamnafas, sodiq birodorlar, neku atvorlar... [2:283]

Ushbu misrada yorlar, atvorlar so‘zlari to‘liq qofiyani shakllantirgan.

Assalom, ey oshnoyi qadrdonlar, assalom,

Qadrdonlar ya‘ni oqil nuqtadonlar, assalom.

Har qayu mulkega yetsa maqdamingiz yumnidin,

Yo rab yetsun tarh bog‘u bo‘stonlar, assalom. [1:446]



Quyidagi maktub misralari Muqimiya tegishli bo‘lib, “Nuqtadonlar, assalom” sarlavhasi ostida yozilgan. Shoir qofiyani shakllantiruvchi har bitta harf va ohangdorlikka e‘tibor bergan. Qadrdonlar, nuqtadonlar, bo‘stonlar so‘zlari qofiya bo‘lib kelgan. Bundan tashqari misralardagi assalom so‘zining radif bo‘lib kelganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Shoirning Furqatga javob xatlaridan birida jonajonlar, mehribonlar so‘zlari vositasida sevimli yor birodarlarini tilga olib salom yo‘llaydi. Va ushbu ikki so‘z she‘riy maktubda qofiyani shakllantiradi:

Salom, ey oshnoyi jonajonlar,

Aqidat pasha, mushfiq mehribonlar. [1:448]

Yuqoridagi tahlillarimiz natijasida aytish mumkinki, shoirlar she‘riy maktublarni yozishda nafaqat mazmun xamohangligiga, balki qofiya radiflarning shakllanishiga ham alohida e‘tibor berganlar.

Xulosa. She‘riy maktublarda badiiy san‘atlarning qo‘llanilishi ularning estetik ta‘sirini kuchaytiradi va adabiy qiymatini oshiradi. Bunday maktublar nafaqat axborot uzatish vositasi, balki san‘at asari sifatida ham e‘tirof etiladi. Ular orqali muallifning ichki kechinmalari, tuyg‘ulari va fikrlari yanada obrazli va ta‘sirchan ifodalanadi.

Badiiy san‘atlar, xususan, tashbeh, istiora, tajnis, talmeh va boshqa usullar she‘riy maktublarga o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. Tashbeh va istiora vositasida fikrlar yanada aniq, yorqin va esda qolarli bo‘ladi. Tajnis esa so‘z o‘yinlari orqali matnga musiqiy ohang va estetik zavq baxsh etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Муқимий. Асарлар. Ғ.Ғулом. – Тошкент: 1974.
2. Фурқат. Танланган асарлар. Ғ.Ғулом. – Тошкент: 1975.
3. Nurboy Jabborov. Furqatning xorijdagi hayoti va ilmiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi. Toshkent: 2004.
4. O‘zbek adabiyoti tarixi uchinchi kitob. T.: 1975.